| Baliqchilik xo'jaliklarida xodimlar bilan hisob-kitoblar hisobining tashkiliy va uslubiy jihatlari .....  | 1088 |
| Ametova Nasiba Danilovna  |      |
| Tijorat banklari tomonidan eksportyor korxonalarning kreditlash amaliyotini takomillashtirish .....   | 1092 |
| Bayjanova Gozzal Sarsengaliyevna  |      |
| Digital Transformation of Tax Systems.....  | 1096 |
| Boburjon Turanboyev Qodirjon o'g'li, Musabekov Sherali Nazarali o'g'li  |      |
| Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish yo'nalishlari.....  | 1101 |
| Raxmonova Aziza Tolibovna   |      |
| Transitioning to a Green Economy and Implementing Sustainable Technological Changes in Uzbekistan .....   | 1106 |
| Umarov Elshod G'ulom o'g'li   |      |
| Texnik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalari daromadlari tarkibi va ularning o'ziga xos jihatlari.....   | 1112 |
| Yuldashev Elmurod Abdujalil o'g'li  |      |
| Совершенствование системы профессионального управления<br>жилищно-коммунальным хозяйством Узбекистана .....   | 1116 |
| Икромова Ханифа Одиловна  |      |
| Sanoat korxonalarini kreditlash amaliyotining zamonaviy holati.....   | 1121 |
| Kamalova Jamila   |      |
| O'zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarning huquqiy maqomi va ularni isloq qilishning istiqbollari....  | 1125 |
| Qahhorov Azizjon Ahror o'g'li   |      |
| Nodavlat notijorat tashkilotlari mablag'lari va ulardan foydalanish to'g'risidagi<br>bajarilishlarga oid hisobotni tuzish va taqdim etish tartibi ..... | 1131 |
| Ne'matov Oybek Ismatullayevich  |      |
| Предприятие автомобильной промышленности как объект реализации<br>концепции устойчивого развития .....  | 1136 |
| Туйчиев Комилжон Лазизович  |      |
| Tijorat banklari aktivlari diversifikatsiyasining nazariy ahamiyati .....   | 1143 |
| O'ktamova Nozima Narzulla qizi  |      |
| Tijorat banklarida yangi masofaviy bank xizmat turlarini rivojlantirish .....   | 1146 |
| Umarov Abdulquddus Abdilqatovich  |      |
| Некоторые вопросы эконометрической оценки CES – функций и их практическое<br>применение в экономических задачах .....                                   | 1151 |
| Шадиева Гулнора Мардиевна, Усманов Фарзод Шохрухович  |      |
| Использование искусственного интеллекта в спортивной индустрии.....   | 1158 |
| Усманова Дилфузахон Иброхимовна   |      |
| The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities ....  | 1163 |
| Po'latov Sherzodbek Oybek o'g'li, Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li   |      |



|   |      |
|---|------|
| Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishni takomillashtirish (Andijon viloyati misolida) .....          | 1168 |
| Kolmatov Sanjarbek Xojimamatovich   |      |
| O'zbekiston temir yo'l transport tizimi rivojlanishing asosiy ko'rsatkichlari.....  | 1174 |
| Qilichev Umid Ibadullayevich  |      |
| Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sharoitida raqamli banklar resurslarini oshirish choraları .....                                     | 1181 |
| Xamraulova Gulnozaxon Faxriddin qizi  |      |
| O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari .....   | 1185 |
| Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li  |      |
| O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati .....   | 1191 |
| Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li  |      |
| Islom iqtisodiyotining mohiyati.....  | 1197 |
| Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li  |      |
| Budget mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi ..... | 1201 |
| G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li   |      |
| Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari .....    | 1207 |
| Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li  |      |
| Перспективное развитие промышленной кооперации между странами .....   | 1212 |
| Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы  |      |
| Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar .....   | 1218 |
| Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna   |      |
| Ta'llim sifatini ta'minlash oliv ta'llim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili.....   | 1222 |
| Nematov Inatillo Ubaydullayevich  |      |
| Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish.....  | 1228 |
| Umurzakova Adiba Ochilovna  |      |
| Tijorat banklari resurslari shakllanishing manbalari va yo'llari.....   | 1232 |
| Raxmanov Ilhom Xurramovich  |      |
| Факторы развития культурного туризма в Узбекистане .....  | 1238 |
| Пулатова Сурайё Юлдашевна   |      |
| Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике .....  | 1242 |
| Рафиева Зарина Хусановна  |      |
| Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries .....                              | 1246 |
| Akhmedov Doniyorbek   |      |
| O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari .....   | 1250 |
| Azizova Manzura Ibragimovna   |      |
| The theoretical importance of product cost reduction in industrial production .....   | 1254 |
| Dilfuza Baxramovna Safarova   |      |
| Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari.....  | 1261 |
| Shamsiyev O'ktam Sayftidinovich   |      |
| Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rni va ularni rivojlantirish yo'nalishlari.....  | 1266 |
| Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna  |      |
| Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiropi va ahamiyati.....   | 1272 |
| Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li   |      |
| Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari .....  | 1277 |
| Ibragimov Gafurjan Axmetovich   |      |
| Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi.....                                     | 1282 |
| Ibragimov Mansur Axmedovich   |      |
| Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida).....                              | 1286 |
| Mamatqulov Omonulla Mamayusupov   |      |
| Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами.....  | 1294 |
| Мансурова Севара Мансуровна   |      |
| Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash .....  | 1297 |
| Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna  |      |



# DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA IQTISODIYOT TARMOQLARINING INVESTITSION SALOHIYATINI OSHIRISHNING O'RTA MUDDATGA MO'LJALLANGAN ISTIBOLLARI (O'ZBEKISTON TEMIRYO'LLARI AJ MISOLIDA)



**Qodirov Jasurbek Sharoftdinovich**  
Xalqaro Nordik universiteti erkin tadqiqotchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada davlat-xususiy sherikchiligi va iqtisodiyot tarmoqlarining investitsion salohiyatini oshirishning o'rta muddatga mo'ljallangan istibollari hamda prognozlashtirish to'g'risida tadqiqot olib borilgan. Tadqiqotda "O'zbekiston temiryo'llari" aksionerlik jamiyatida amalga oshirilgan loyihalarni asosiy gipoteza sifatida izlanish olib borilgan. Tahsil jarayonida regrestsion-korrelyatsion usuli hamda AR modellaridan foydalanilgan. Shuningdek, natijalarga asoslanib taklif va tavsiyalar keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** davlat-xususiy sherikligi, korrelyatsiya, investitsiya, regression tahlil, xususiy sektor, "O'zbekiston temiryo'llari" AJ, MR model.

**Abstract:** This article conducts a study of medium-term prospects and forecasting of public-private partnerships and increasing the investment potential of economic sectors. In the study, as the main hypothesis, projects implemented at JSC "Railways of Uzbekistan" were investigated. The regression-correlation method and AR models were used in the analysis process. Suggestions and recommendations are also given based on the results.

**Key words:** public-private partnership, correlation, investment, regression analysis, private sector, Uzbekistan Railway JSC, MR model.

**Аннотация:** В данной статье проведено исследование среднесрочных перспектив и прогнозирования государственно-частного партнерства и повышения инвестиционного потенциала отраслей экономики. В исследовании в качестве основной гипотезы были исследованы проекты, реализуемые в АО "Железные дороги Узбекистана". В процессе анализа использовались регрессионно-корреляционный метод и AR-модели. Также по результатам даются предложения и рекомендации.

**Ключевые слова:** государственно-частное партнерство, корреляция, инвестиции, регрессионный анализ, частный сектор, АО "Узбекистанская железная дорога", модель MR.

## KIRISH

2017-yildan buyon O'zbekistonda iqtisodiy o'sish sur'atlarini jadallashtirish, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish va mamlakatning jahon savdosida ishtirokini kengaytirish maqsadida muhim bozor islohotlari amalga oshirilmoqda.

Ushbu maqsadlarga erishish uchun milliy iqtisodiyotning ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va ishlab chiqarayotgan mahsulotlarining xalqaro bozorlarda raqobatbardoshligini oshirish, shuningdek, shaxsiy va sanoat iste'moliga o'sib borayotgan ichki talabga xizmat ko'rsatish maqsadida uning strukturasini modernizatsiya va yangilash zarur. Ushbu ulkan maqsadlarga erishish transport sohasi samaradorligiga bog'liq. O'zbekiston yuk tashish bozorida temiryo'l transportining ulushi 32 foizni tashkil etib, avtomobil transporti ulushidan ko'pdir. Bu O'zbekiston hukumati tomonidan iqtisodiyotni rivojlantirishning keng ko'lamli maqsadlarini qo'llab-quvvatlashda temiryo'l transporti muhim o'rin tutishini ko'rsatadi.



“O’zbekistonda temiryo’l orqali yuk tashish hajmi 2020-yilda yuk aylanmasi 3 foizga, yuk tashish 2016-yilga nisbatan 11 foizga oshdi. Xuddi shu davrda avtomobil transportida yuk tashish yanada jadal sur’atlar bilan o’sib, 2020-yilda 2016-yilga nisbatan 22 foizga o’sgan. Yo’qotishlar asosan ichki bozorga to’g’ri keladi, shu bilan birga UTY xalqaro trafik hajmi oshdi. Ichki bozordagi qisqa transport masofalari va oxirgi mil muammolari temiryo’llarning bozordagi mavqeiyini saqlab qolish uchun qo’shimcha yechimlarni talab qiladigan jihatlardir”<sup>1</sup>.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Ilmiy adabiyotlarda DXSh da investitsiyalarni va loyiha risklarini boshqarishga tegishli asosiy masalalar va mavzular tahlil qilingan hamda asoslar ishlab chiqishgan.

Salzmann and Mohammed xavf va muvaffaqiyatning birgalikda ko’rib chiqilishi muhim deb hisoblashadi va bu sohadagi muhokama muvaffaqiyat omillarini qurilish loyihalarida, shu jumladan, DXSh sxemalarida qo’llashni o’z ichiga oladi deb hisoblashgan. Ular nazariy asos shaklida taqdim etilgan asosiy tarixiy xavf omillarini aniqlashgan<sup>2</sup>.

Chege va Rwelamila larning ta’kidlashicha, DXSh loyihalarini moliyalashtirish va an’anaviy yondashuvlar o’rtasidagi asosiy farq shundaki, kreditorlar loyihaning iqtisodiy samaradorligini ko’rsatish uchun faqat kuti-layotgan pul oqimlariga ega. Ushbu loyihalar asosan “loyihalarni moliyalashtirish” deb nomlanuvchi texnika orqali moliyalashtiriladi. Loyihani moliyalashtirish qo’shimcha homiy kafolatlarisiz, o’z operatsion pul oqimlari va aktivlari atrofida moliyanı tuzib, yangi investitsiyalarga yordam beradi. Bundan tashqari, ushbu texnika investitsiya tavakkalchiligini yengillashtirishi va homiy va investoring manfaati uchun nisbatan arzon narxda moliyalashtirishga qodir3.

Shundan kelib chiqib, O’zbekistonda temiryo’lning davlat va xususiy sherik uchun investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini tahlil qilishda ikki darajadagi chegirma stavkalarini ( $E$ ) ajratib ko’rsatish maqsadga muvofiqli: milliy iqtisodiy ( $E_n$ ) va tijorat ( $E_k$ ). Bunday bo’linishning maqsadga muvofiqligi, davlat va xususiy sherik uchun mablag’larni qaytarish stavkalari loyihalar uchun har xil maqbul to’lov muddatlari tufayli har xil bo’lishi bilan bog’liq.

Xususiy sherik uchun maqbul to’lov muddati 3-7 yil, yirik loyihalarda 10 yilgacha belgilanishi maqsadga muvofiqli. Davlat uchun 25-30 yil va ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarda 50 yil qabul qilinishi mumkin. Ba’zi hollarda esa davlat investitsiya qilingan mablag’larni qaytarish maqsadini umuman ko’zlamasligi mumkin.

Dobrin Alekseyning fikricha, agar biz sof joriy qiymatni kapital qo’silmalar va diskont stavkasi funksiyasi sifatida ko’rib chiqsak, biz quyidagilarni olamiz:

$$\begin{cases} DSD_d = f(K'_b + \Delta K; E_n) \\ XShSD_d = f(K_k - \Delta K; E_k) \end{cases} \quad (1)$$

bu yerda,

$DSD_d$  – davlatning sof diskontlangan daromadi;

$XShSD_d$  – xususiy sherikning sof diskontlangan daromadi;

$K_b$  –  $E_k$  da davlat investitsiyalari;

$K_k$  –  $E_n$  dagi xususiy sherikning investitsiyalari;

$K$  – loyihaga investitsiyalarining farqi, quyidagicha aniqlanadi:

$$\begin{cases} \Delta K = K_b - K'_b \\ K'_b = f(DSD_d; E_k) \\ K_b = f(DSD_d; E_n) \\ DSD_d = const \end{cases} \quad (2)$$

bu yerda

$K_b$  –  $E_n$  dagi davlat investitsiyalar.

Shunday qilib, davlat uchun siz  $Ye=5\text{-}10\%$ , xususiy sherik uchun  $Ye=12\text{-}18\%$  chegirma stavkasidan foy-dalanishingiz mumkinligini ifodalagan<sup>4</sup>. Bu davlatga investitsiya loyihalaridagi ulushlarni moslashtirish, uning

1 World Bank. Proposed Strategy for the Reform of the Railway Sector in Uzbekistan. © World Bank.” Avgust 2022 g.

2 Salzmann A., and Mohamed S. (1999a) Risk Identification Frameworks for International PPP Projects. In (ed) Ogunkola S. Profitable Partnering in Construction Procurement, CIB W92 Proceedings Publication 224, pp 475-485. Salzmann, A. And Mohamed, S. (1999b) Risk Identification and Interaction in International PPP Projects. In (Ed) Williams, P. H. M., Australian Institute of Building Papers, Vol 9, pp 101-114.

3 Chege, L. W. And Rweamila, P. D. (2001) Private Financing of Construction Projects and Procurement Systems: An Integrated Approach. In (ed) Duncan, J. Performance in Product and Practice, Proceedings of the CIB World Building Congress, 2-6 April, Wellington, NZ.

4 Добрин А.Ю. “Экономическое обоснование механизмов государственно-частного партнерства в транспортном строительстве” Диссертация/ Москва – 2016 г.



investitsiya yukini oshirish va xususiy sherik yukini kamaytirish yo'laklarini shakllantirishda yanada moslashuv-chan bo'lish imkonini beradi. Diskont stavkasining raqamli qiymatini tanlash (E) quyidagi omillarga bog'liq<sup>5</sup>:

- investitsiya maqsadlari va loyihani amalga oshirish shartlari;
- muayyan milliy iqtisodiyotdagি inflyatsiya darajasi;
- investitsion riskning qiymati;
- muqobil investitsiya imkoniyatlari;
- investorning moliyaviy va boshqa mulohazalari va qarashlari.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Xususiy tadbirkorlikni DXSh loyihalarida ishtirok etishga rag'batlantirish uchun maxsus bonus tizimi qo'llanilishi mumkin, bunda xususiy sherik obyektni o'z vaqtida foydalanishga topshirilgan taqdirda davlatdan haq olish maqsadga muvofiq bo'ldi. Obyektni qurish vaqtining investitsiya yukining taqsimlanishiga ta'sirini aniqlovchi koeffitsiyent ga teng bo'lsa. Shunga asosan, agar xususiy sherik obyektni o'z vaqtida taqdim etsa (misol uchun muddat tugashidan bir oy oldin), u holda u mukofot olish huquqiga ega bo'ladi va bu quyidagi uslubiyotga asosan:

$$M_{\text{курилиш}} = 1/12 \cdot o_{\text{курилиш}} \cdot K \cdot N_{\text{қисм}} \quad (3)$$

bu yerda

$Q$  – obyektni qurish qiymati;

$N_{\text{қисм}}$  – xususiy sherikning investitsiyalar ulushi;

Agar davlat bilan kelishilgan holda, obyektni texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlariga putur yetkazmasdan mud-datidan oldin foydalanishga topshirish mumkin bo'lsa, bonus miqdori tezlashtirilgan foydalanishga topshirilgan kunlar soniga mutanosib bo'ladi va u quyidagicha hisoblanadi:

$$M_{\text{курилиш}} = \frac{K \cdot o_{\text{курилиш}} \cdot K \cdot N_{\text{қисм}}}{365} \quad (4)$$

bu yerda

$K$  – tezlashtirilgan ishga tushirish kunlari soni.

Albatta, bu mexanizm yanada takomillashtirishni talab qiladi, ammo uni amalga oshirish mumkin, transport sohasidagi eng muhim DXSh loyihalari qo'shimcha mablag' olish imkoniyatiga ega bo'linadi. Bu matodikani qo'llash orqali iqtisodiyot tarmoqlarining investitsion salohiyatini oshirish imkoniga ega bo'lish mumkin. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida davlat-xususiy sherikligi asosida iqtisodiyot tarmoqlarining investitsion salohiyatini oshirishni o'rta muddatli prognozini empirik asosda tuzib olishda ekonometrik modellashtirishdan foy-dalanamiz.

Vaqtli qatorlarni prognozlash – bu tarixiy tendensiylar asosida kelajakdagи qiymatlarni bashorat qilish uchun ishlataladigan usuldir. Kelajakdagи tendensiya tarixiy tendensiya o'xshash bo'ladi degan taxmin bilan ketma-ket ma'lumotlardan foydalaniadi. Bundan tashqari, u nazorat ostidagi o'rganish muammosi sifatida mashinani o'rganishda keng qo'llaniladi. Uning aniqligini oshirish uchun biz turli xil ML algoritmlarini qo'llashimiz mumkin, masalan, Regression, Random Forest, XGBoost va boshqalar.

Ma'lumotlar to'plamida o'rganilgan ML modellari sifatida turli xil vaqtli qatorlarni prognozlash usullari qo'llaniladi. Modellar tuzilgandan va baholagandan so'ng, ushbu modellarning natijalari asosida yakuniy bashorat qilinadi. Vaqtli qatorlarni prognozlash usullarini qo'llashdan oldin, biz vaqtli qator ma'lumotlarining o'zi bilan ko'p omilli regression modellar hosil qilish kerak. Vaqtli qator ma'lumotlarining ba'zi xususiyatlari mavjud<sup>6</sup>:

- Vaqtga bog'liqlik: Vaqtli qator ma'lumotlari ma'lum vaqt davomida to'planganligi sababli, u vaqtga juda bog'liq. Ma'lumotlar nuqtalarining tartibi ushbu nuqta bilan bog'liq bo'lган aniq vaqt oralig'ini belgilaydi.
- Trend: Trendlar – bu ma'lumotlarda vaqt o'tishi bilan sodir bo'ladigan uzoq muddatli o'zgarishlar yoki ko'rsatkichlardir. Trend ortib borayotgan, kamayuvchi yoki statsionar bo'lishi mumkin.
- Mavsumiylik: Bu vaqtli qator ma'lumotlarining muhim belgisidir. Mavsumiylik ma'lumotlarning ma'lum vaqt oralig'iда sodir bo'ladigan takrorlanadigan tebranishlari yoki grafiklari ifodalaniladi. Bu oraliq yillik, oylik, choraklik va hokazo bo'lishi mumkin.

5 Волков, Б. А. Оценка экономической эффективности инвестиций и инноваций на железнодорожном транспорте: Учебное пособие [Текст] / Б. А. Волков, А. А. Гавриленков, А. С. Каверин, А. В. Марцинковская, В. Я. Шульга // Под ред. Б. А. Волкова. – Москва. – УМЦ ЖДТ. – 2009. – 152 с.

6 <https://www.codingnijas.com/studio/library/time-series-forecasting-methods>



- Tasodifyi xato: Tasodifyi xato – bu ma'lumotlardagi tebranishdir. Bu tebranish bashoratning aniqligiga ta'sir qiladi va shuning uchun uni iloji boricha kamaytirish kerak.
- Avtokorrelyatsiya: bu vaqtli qator ma'lumotlarining asosiy xarakteristikasi. Avtokorrelyatsiya qilingan ma'lumotlarda ma'lumotlarning o'tgan qiymatlari hozirgi qiymatlarni bilan korrelyatsiya qilinadi.

Tadqiqot jarayonida biz ma'lumotlarni korrelyatsion-regression tahlil orqali eng optimal model hosil qilib olamiz. So'ngra optimal model orqali o'rta muddatli istiqboldagi qiymatlarni hosil qilamiz. Bashorat qilish uchun bir necha turdag'i prognozlash usullari mayjud. Quyida eng ko'p qo'llaniladigan prognozlash usullari keltirilgan.

- Harakatlanuvchi o'rtacha modeli (Moving Average Model)
- Eksponensial tekislash modeli (Exponential Smoothing Model)
- Avtoregressiv model (Autoregressive Model)
- Avtoregressiv harakatlanuvchi o'rtacha model (ARMA)
- Avtoregressiv integratsiyalashgan harakatlanuvchi o'rtacha model (ARIMA)

Bevosita biz tadqiqot jarayonida Avtoregressiv (AR) modelidan foydalaniib prognoz qiymatini topamiz. Avtoregressiv (AR) modeli ma'lumotlarning o'tmishdagi tendensiyalari asosida kelajakdagi tendensiyalarni prognoz qiladigan boshqa vaqtli qatorlarni prognozlash usulidir. Vaqtli qatorlar qiymatlarning oldingi va keyingi qiymatlari o'tasida korrelyatsiya mayjud bo'lganda qo'llaniladi. Bu usul vaqtli qatorlarning qiymatlari oldingi qiymatlariga chiziqli bog'liq degan taxminga asoslanadi. Avtoregressiv modelda ma'lum bir vaqtda prognoz qiymati o'tgan p kuzatuvlarining chiziqli birikmasidir. Bu yerda p avtoregressiv modelning tartibi deb ham ataladi.

AR modelining formulasi quyidagicha:

$$x_t = c + \sum_{i=1}^p a_i x_{t-i} + \epsilon_t \quad (5)$$

Bu yerda:

- $x_t$ : bu "t" vaqtidagi prognoz qiymati.  
 $x_{(t-1)}$ : bu "t-1" vaqtida kuzatilgan qiymat.  
 $c$ : bu doimiy yoki kesishma qiymat.  
 $\epsilon_t$ : bu "t" vaqtidagi xato atamasidir.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida Stata16 amaliy paketi yordamida ko'p omilli korrelyatsion-regression tahlilni amalga oshirib, optimal madelni tanlab olamiz. Hamda unda qatnashgan ta'sir etuvchi omillar uchun Avtoregressiv (AR) modellarini tuzib, ularning prognoz qiymatlarini olamiz.

|    | y      | x1     | x2     | x3      | x4     |
|----|--------|--------|--------|---------|--------|
| y  | 1.0000 |        |        |         |        |
| x1 | 0.6064 | 1.0000 |        |         |        |
|    | 0.0480 |        |        |         |        |
| x2 | 0.8365 | 0.2649 | 1.0000 |         |        |
|    | 0.0026 | 0.4594 |        |         |        |
| x3 | 0.4146 | 0.2856 | 0.2652 | 1.0000  |        |
|    | 0.2048 | 0.3945 | 0.4590 |         |        |
| x4 | 0.5997 | 0.1152 | 0.7179 | -0.2616 | 1.0000 |
|    | 0.0668 | 0.7513 | 0.0194 | 0.4654  |        |

1-rasm: Korrelyatsion matritsa<sup>7</sup>

7 Muallif hisob-kitobi



Tadqiqot jarayonida O'zbekiston temiryo'llari aksionerlik jamiyati tomonida taqdim qilingan ma'lumotlar asosida korrelyatsion-regression tahlil amalga oshirdik. Bunda AJ ning investitsion loyihalarning miqdori ( $y$  – o'zgaruvchi) yendogen omil bo'lsa, qolgan omillar esa yekzogen omillardir. Bularga investitsion loyihalarning amalga oshirishda o'z mablag'iidan foydalangan miqdori ( $x_1$  o'zgaruvchi), davlat budgetidan moliyalashtirilgan mablag' miqdori ( $x_2$  o'zgaruvchi), xorijiy investitsiyalar va Hukumat tomonidan kafolatlangan kreditlar ( $x_3$  o'zgaruvchi) va O'zbekiston federal zaxira okrugi ( $x_4$  o'zgaruvchi) mablag'laridir. Stata16 amaliy paketi orqali pirson korrelatsion tahlil natijasini olindi va unga asosan yendogen o'zgaruvchiga  $x_1$  va  $x_2$  yezgogen o'zgaruvchilar bilan to'g'ri va zinch bog'langanligini ifodaladi(1-rasm).


| Source   | SS         | df        | MS         |             |                      |                 |        |
|----------|------------|-----------|------------|-------------|----------------------|-----------------|--------|
| Model    | 129597.009 | 2         | 64798.5043 | F( 2, 7 ) = | 82.49                | Prob > F =      | 0.0000 |
| Residual | 5499.01894 | 7         | 785.574134 | R-squared = | 0.9593               | Adj R-squared = | 0.9477 |
| Total    | 135096.027 | 9         | 15010.6697 | Root MSE =  | 28.028               |                 |        |
| y        | Coef.      | Std. Err. | t          | P> t        | [95% Conf. Interval] |                 |        |
| x1       | .7804273   | .1168177  | 6.68       | 0.000       | .5041974             | 1.056657        |        |
| x2       | 3.353053   | .3806849  | 8.81       | 0.000       | 2.452876             | 4.25323         |        |
| _cons    | 155.7363   | 39.26481  | 3.97       | 0.005       | 62.88977             | 248.5828        |        |

2-rasm: Regression tahlil natijasi<sup>8</sup>

Korrelyatsion tahlil natijalari p-value qiymatiga ham tekshirildi va olingan juft va xususiy koefitsientlar ahamiyatligi ifodalanildi. So'ngra ko'p omilli chiziqli regression tenglama hosil qilindi. Bunda MR model (multi-factorial regression model) parametirlari topildi va model bir necha testlarga tekshirildi (2-rasm). Natijada model qo'yidagicha bo'ldi:

$$y=155.7363+0.7804273*x_1+3.353053*x_2$$

MR modelning qiymatlari reallikga qancha yaqinligi ifodalash uchun uning grafigi hosil qilindi (3-rasm) hamda determinatsiya koeffitsiyenti ( $R^2=0.9593$ ) ga tenglashdi. Bu natija modelning hisoblangan qiymatlari empirik asosda 95 foiz yaqinligni ifodalarydi.



3-rasm: Hisoblangan model qiymatlari<sup>9</sup>

8 Stata16 amaliy paketi orqali muallif tomonidan olingan tahlil natijasi

9 Muallif ishlammasi



Shuningdek, modelning shaklining ahamiyatligi F-mezoni orqali(Fisher mezoni) orqali tekshirildi. Natijada  $F=82.49$  ga teng bo'ldi va u p-value qiymatiga asosan ahamiyatligi ifodalanildi.

Foydalilanigan regressiya tenglamaisi to'g'ri tanlanilanligini ifodalaydi.

| Source   | SS         | df | MS         | Number of obs = 10     |
|----------|------------|----|------------|------------------------|
| Model    | 23105.3783 | 1  | 23105.3783 | $F( 1, 8) = 4.76$      |
| Residual | 38806.794  | 8  | 4850.84925 | Prob > F = 0.0606      |
| Total    | 61912.1723 | 9  | 6879.13025 | R-squared = 0.3732     |
|          |            |    |            | Adj R-squared = 0.2948 |
|          |            |    |            | Root MSE = 69.648      |

| x1    | Coef.    | Std. Err. | t    | P> t  | [95% Conf. Interval] |
|-------|----------|-----------|------|-------|----------------------|
| L1.   | .6139444 | .2813076  | 2.18 | 0.061 | -.034752 1.262641    |
| _cons | 119.0363 | 90.4565   | 1.32 | 0.225 | -89.55682 327.6293   |

4-rasm: AR modelining regression tahlili<sup>10</sup>

Shu bilan birgalikda modelning parametirlarini ishonchlidigini tekshirishda t-statics ya'ni Styudent mezoni bilan tekshirdik(2-rasm) va bu esa barcha modelning styudent qiyatlari p-value qiymatiga asosan ahamiyat bo'ldi. Bu shuni ifodalaydiki, model koeffitsienlari ishonchlidir va ekonometrik modellashtirishning keyingi bosqichiga ya'ni prognoz bosqichiga. Bunda modelning har bir yekzogen o'zgaruvchisiga Avtoregressiv (AR) modellarini hosil qilamiz.

Birinchi x1 o'zgaruvchi uchun AR(1) modeli quyidagicha ifodalanildi:

$$x1=119.0363+0.6139444*L1.x1$$

bunda lag o'zgaruvchidan foydalanildi.

| Source   | SS         | df | MS         | Number of obs = 9       |
|----------|------------|----|------------|-------------------------|
| Model    | 93.906386  | 1  | 93.906386  | $F( 1, 7) = 0.16$       |
| Residual | 4196.85283 | 7  | 599.550404 | Prob > F = 0.7041       |
| Total    | 4290.75921 | 8  | 536.344902 | R-squared = 0.0219      |
|          |            |    |            | Adj R-squared = -0.1178 |
|          |            |    |            | Root MSE = 24.486       |

| x2    | Coef.    | Std. Err. | t    | P> t  | [95% Conf. Interval] |
|-------|----------|-----------|------|-------|----------------------|
| L1.   | .1608236 | .4063639  | 0.40 | 0.704 | -.8000742 1.121721   |
| _cons | 58.65794 | 29.93012  | 1.96 | 0.091 | -12.11555 129.4314   |

5-rasm: AR modelining regression tahlili<sup>11</sup>

AR(1) modelini ikkinchi ta'sir etuvchi omil uchun tuzib olamiz va natjalarni tahlil qilib, model shaklini tuzib olamiz.

$$x2=58.65794+0.1608236*L1.x2$$

AR modellari ichidan eng ijobiysi 1-tartibli lag modeliga to'xtalindi. Qancha lag o'zgaruvchini ko'paytirgan sari natjalar salbiy oqibatlarga olib keladi. Shuning uchun ikkala ta'sir etuvchi omillar uchun ham AR(1) modelidan foydalaniib, o'rta muddatli prognoz qiyatlari olindi.

10 Muallif amaliy paket yordamida olgan qiyatlari

11 Tadqiqotchi hisob-kitob qiyatlari



| years | x1      | x2      | yhat1    |
|-------|---------|---------|----------|
| 2023  | 292.132 | 62.1044 | 591.9632 |
| 2024  | 298.389 | 68.6458 | 618.7801 |
| 2025  | 302.23  | 69.6978 | 625.3056 |
| 2026  | 304.589 | 69.867  | 627.7136 |
| 2027  | 306.037 | 69.8942 | 628.9349 |

6-rasm: O'rtacha prognoz qiymatlar<sup>12</sup>

Investitsion loyihalarni amalga oshirishda o'z mablag'idan foydalangan miqdori ( $x_1$  o'zgaruvchi) va davlat budgetidan moliyalashtirilgan mablag' ( $x_2$  o'zgaruvchi) miqdorlarining prognoz qiymatlari olinib, tenglamalar tizimi orqali yuqoridagi optimal MR modelidagi o'zgaruvchilar o'rniغا qo'yildi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

AJ ning investitsion loyihalarning miqdori ( $y$  o'zgaruvchi) yendogen omil bilan investitsion loyihalarni amalga oshirishda o'z mablag'idan foydalangan miqdori ( $x_1$  o'zgaruvchi) va davlat budgetidan moliyalashtirilgan mablag' miqdori –  $x_2$  o'zgaruvchilar bilan to'g'ri va zinch bog'langanligini ifodaladi.

Natijada AJ ning investitsion loyihalarning miqdorining stoxastik o'rta muddatli prognoz qiymatlari hosil qilindi. O'zbekiston temiryo'llari AJ 2027-yilga borib, empirik 628.9349 mlrd.so'm miqdorga erishadi. Agarda o'z mablag'idan 306.037 mlrd.so'm va davlat budgetidan 69.8942 mlrd.so'm miqdorda moliyalashtirilsa.

Shu bilan birgalikda MR modeliga asosan xulosa qiladigan bo'lsak, O'zbekiston temiryo'llari aksionerlik jamiyati 2027-yilga borib 629 mlrd.so'm miqdorda investitsion loyihalarni amalga oshirishi mumkin. Bunda u o'z mablag'idan 50 foiz miqdorda va davlat tomonida 10 foiz miqdorda va qolgan 40 foiz miqdorini xorijiy investitsiyalar kiritish orqali amalga oshirishi muinin.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "World Bank. Proposed Strategy for the Reform of the Railway Sector in Uzbekistan. © World Bank." – Август 2022 г.
2. Salzmann A., and Mohamed S. (1999a) Risk Identification Frameworks for International PPP Projects. In (ed) Ogundiana S. Profitable Partnering in Construction Procurement, CIB W92 Proceedings Publication – 224, pp 475-485.
3. Salzmann, A. And Mohamed, S. (1999b) Risk Identification and Interaction in International PPP Projects. In (Ed) Williams, P. H. M., Australian Institute of Building Papers, Vol 9, pp – 101-114.
4. Chege, L. W. And Rwelelila, P. D. (2001) Private Financing of Construction Projects and Procurement Systems: An Integrated Approach. In (ed) Duncan, J. Performance in Product and Practice, Proceedings of the CIB World Building Congress, 2-6 April, Wellington, NZ.
5. Добрин А. Ю. "Экономическое обоснование механизмов государственно-частного партнерства в транспортном строительстве" Диссертация/ Москва – 2016 г.
6. Волков, Б. А. Оценка экономической эффективности инвестиций и инноваций на железнодорожном транспорте: Учебное пособие [Текст] / Б. А. Волков, А. А. Гавриленков, А. С. Каверин, А. В. Марцинковская, В. Я. Шульга // Под ред. Б. А. Волкова. – Москва. – УМЦ ЖДТ. – 2009. – 152 с.
7. <https://www.codingninjas.com/studio/library/time-series-forecasting-methods>

12 Tadqiqotchi Stata16 ekonometrik amaliy paketi orqali olingan stoxastik natijasi

# Yashi

IQTISODIYOT  
va  
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 11-12**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

#### Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.

